

## **THE IMPORTANCE OF MULTILATERAL RELATIONS IN A MULTIPOLAR WORLD**

Tashkent State University of Oriental Studies  
Faculty of Foreign Policy and International Economic Relations  
Department of International Relations (Arabic–English Program)

3rd-year student:

**Sarvarbek Bo‘riyev, son of Sirojiddin**

Email: sarvarboriyev574@gmail.com

Phone: +998 91 199 10 55

### **ANNOTATION**

This article analyzes the importance of a multipolar world and multilateral relations in the modern international system. It emphasizes the significance of multilateral cooperation among states in the era of globalization and multipolarity. As interactions between countries in global politics and the economy continue to strengthen, the article explores the role of multilateral relations in areas such as global cooperation, trade, security, culture, and the environment. It also discusses how the patterns of rising powers in the first quarter of the 21st century differ from those in past historical periods. These differences are reflected in the larger number of states considered global powers, the prioritization of the economic dimension of power, and the broader and more transparent institutionalization (i.e., cooperation through international organizations and systems). The article highlights the importance of multilateral diplomacy in contemporary world politics and its impact on international cooperation and sustainable development.

**Keywords:** multipolarity, unipolarity, bipolarity, global politics, hegemonic power, cooperation, diplomatic relations, globalization, superpowers.

### **ANNOTATSIYA**

Ushbu maqola ko'p qutbli dunyo va ko'p tomonlama munosabatlarning zamonaviy xalqaro tizimdagi ahamiyatini tahlil qiladi. Maqola globallashuv va ko'p qutblilik davrida davlatlar o'rtasidagi ko'p tomonlama aloqalar va hamkorlikning ahamiyatini ta'kidlaydi. Global siyosat va iqtisodiyotda davlatlar o'rtasidagi o'zaro aloqalar mustahkamlanib borayotgan bir vaqtda, maqolada ko'p tomonlama munosabatlarning global hamkorlik, savdo, xavfsizlik, madaniyat va ekologiya kabi sohalardagi roli ko'rib chiqilgan. Shu tariqa, XXI asrning birinchi choragidagi kuchlarning yuksalish shakllari ilgari bo'lgan tarixiy davrlardan qanchalik farq qilishi haqida so'z yuritiladi. Bu farqlar quyidagilarda namoyon bo'ladi, bu kuch toifasiga kiruvchi davlatlar sonining ko'pligi, kuchning iqtisodiy o'lchamlariga ustuvorlik berilishi va institutlashuv (ya'ni xalqaro tashkilotlar va tizimlar orqali hamkorlik) darajasining ancha keng va ochiq bo'lishi. Maqola ko'p tomonlama diplomatiyaning zamonaviy dunyo siyosatidagi ahamiyatini, shuningdek, uning xalqaro hamkorlik va barqaror rivojlanishga ta'sirini ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar:** Ko'p qutblilik, Bir qutblilik, Ikki qutblilik, Global siyosat, Hegemonik kuch, hamkorliklar, diplomatik munosabatlar, globallashuv, superkuchlar.

## **KIRISH**

Ko'p qutbli dunyo - bu global tizimda bir nechta kuchli davlatlar va tashkilotlar mavjud bo'lgan tuzilma bo'lib, ular o'zaro mustahkam aloqalar va o'zaro manfaatlarga asoslangan diplomatik yondashuvlarni ilgari suradi. Bunday dunyoda, har bir kuchli davlat yoki tashkilot o'z ta'sirini amalga oshirish yo'lida harakat olib borsada, ammo hech biri mutlaq hukmronlikka ega emas. Aksincha, bu tizimda har bir o'yinchi o'zining global siyosatdagi o'rnini va ahamiyatini saqlab qolishga intiladi, bu esa kuchlar o'rtasida muvozanatni ta'minlaydi.

Ko'p qutbli dunyo tizimi, hegemonik bir kuchning mavjud emasligi bilan ajralib turadi. Ya'ni, dunyo siyosatida faqat bitta superkuchning dominatsiyasi o'rniga, bir

nechta yirik davlatlar yoki mintaqaviy bloklar o'rtasida kuch taqsimoti va o'zaro raqobat mavjud. Bu holat global barqarorlik va xavfsizlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi, chunki har bir o'yinchi o'z manfaatlarini himoya qilish uchun diplomatik vositalarni ishlatadi. Ko'p qutbli tizimning bunday xususiyatlari, konfliktlarning oldini olish va diplomatik yo'llar orqali yechim topish imkoniyatlarini yaratadi. Bugungi zamonaviy davr siyosatida, dunyoda AQSH va Rossiya kabi kuchlardan keyin, yangi va global siyosatda ham iqtisodiyotda ham rivojlanib kelayotgan Xitoy davlatini dunyodagi yangi bir kuch sifatida aytsak xat6 bo'lmas. Xitoy Xalq Respublikasi bugungi iqtisodiyotda AQSHdan keyingi ikkinchi o'rinda turibdi va eng ilg'or rivojlanayotgan davlat bo'lib dunyo davlatlariga o'z ta'sirini bir qancha loyihalari bilan ta'sir o'tkazib kelmoqda. Bunday loyihalarga Bir kamar bir yo'l (Belt and Road Initiative) loyihasi xitoy iqtisodiy bozorini Markaziy Osiyo, Yevropa va Afrikaga chiqish orqali Xitoy o'z global iqtisodiy ta'sirini o'rnatmoqchi. Xitoyning 2050-yilga mo'ljallangan maqsadlarida global iqtisodiyotda AQSHni ortda qoldirib birinchi o'rinni egallashni oliy ustuvor maqsad sifatida qo'ygan.

Bundan tashqari, ko'p qutbli dunyo global iqtisodiyotda ham muhim o'zgarishlarni keltirib chiqaradi. Har bir davlat o'z iqtisodiy modelini ilgari surib, savdo, investitsiyalar, va texnologiyalar bo'yicha aloqalar o'rnatadi. Bu, shuningdek, iqtisodiy raqobat va yangi rivojlanish imkoniyatlarini yaratadi, chunki davlatlar o'rtasidagi hamkorlik va raqobat global bozorlarni shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Bunday tizimda, davlatlar o'zaro mustahkam va o'zaro foydali aloqalarni rivojlantirgan holda, global iqtisodiyotni yanada muvozanatli qilishga intiladi.

Ko'p qutblilik – bu dunyo uchun zarur, chunki u global adolat va muvozanatni ta'minlashga yordam beradi. Ko'p qutblilik, dunyo siyosatida bir nechta kuchli va mustahkam markazlarning mavjud bo'lishini anglatadi, bu esa global muvozanat va qaror qabul qilish jarayonlarida tenglikni ta'minlashga olib keladi. Agar faqat bitta yoki

ikkita kuch markazi mavjud bo'lsa, bu holat global miqyosda dominatsiya qilish yoki ijtimoiy va iqtisodiy adolatsizlikka olib kelishi mumkin.

Ko'p qutblilik, dunyo siyosatida va iqtisodiyotda ko'plab kuchlar va markazlarning ishtirokini anglatadi, bu esa muvozanatni saqlashda yordam beradi. Misol uchun, agar dunyoda bir nechta kuchli davlatlar bo'lsa, ularning o'zaro raqobati va hamkorligi global qarorlarni ko'proq adolatli qilishga imkon beradi. Bu holatda, kuchli davlatlar o'rtasidagi bog'liqlik va muvozanat dunyo bo'ylab yanada barqarorlikni ta'minlaydi. Bugungi globallashuv davrida Yaqin sharqda Turkiya, Uzoq sharqda Yaponiya, Osiyo-Tinch okeani mintaqasidan Xitoy va Hindistonning dunyoda yangi kuch sifatida paydo bo'layapti. Bugungi Turkiya NATOning a'zosi bo'lib, yangi davr siyosatida o'z harbiy salohiyatida "Bayrakdar" nomli dronlarini ishlab chiqarishi bilan, balki diplomatik jihatdan -Suriyadagi rollari, Liviya va Ozarbayjon-Armaniston mojarosidagi pozitsiyasi orqali ham dunyo siyosatiga ta'sir qilib kelmoqda. Yaponiya dunyo siyosatida "tinchlikparvar konstitutsiya"si tufayli harbiy cheklolarga ega. Bu holat global siyosiy faoliyatiga ta'sir qilsa-da, u "yumshoq kuch" (soft power) orqali dunyoga kuchli ta'sir ko'rsatmoqda. Yaponiya ikkinchi jahon urushida mag'lub bo'lishi yoki 2011- yilgi buyuk Fukishima sunami to'fonlaridan katta Zarar ko'rgan bo'lsa ham, o'z milliy iqtisodini tiklab oldi va bugungi kunda Global iqtisodiyotda 4-o'rinda ketayotgan davlat<sup>1</sup>. Xitoy bugungi davr iqtisodi bo'yicha eng tez va ilg'or rivojlanayotgan iqtisod bo'lib, AQSHdan so'ng ikkinchi o'rinda kelayotgan davlat. Xitoyning "Bir kamar – bir yo'l" loyihasi uning strategik iqtisodiy loyihasi bo'lib, XVI-asrda to'htab qolgan "Buyuk Ipak Yo'li" savdo yo'lini qayta tiklash orqali, Markaziy Osiyo-Yevropa-Afrika davlatlari milliy bozorini o'z Tovar-mahsulotlari bilan ta'minlash maqsadlari qo'yilgan. Xitoyning global siyosiy ambitsiyalari masalan, AQSH bilan raqobat, Tayvan masalasi, Janubiy Xitoy dengizidagi mojarolarning hal

<sup>1</sup> E Vogel, *Japan as Number One: Lessons for America*, Cambridge, MA: Harvard University Press, 1986.

qilinishi xitoyning tashqi siyosatidagi asosiy vazifalaridan biri.<sup>2</sup> Hindiston dunyodagi eng yirik demokratiyalardan biri sifatida ko'p tomonlama diplomatiyani qo'llab-quvvatlaydi. Bu davrda BMT, G20, BRICS, kabi ko'plab xalqaro tashkilotlar va alyanslarda faol ishtirok etib, Hindiston Harbiy qudrati, yadroviy imkoniyatlari va iqtisodiy o'sishi Hindistonni global siyosatda mustaqil kuch sifatida paydo bo'layotganini ko'rsatadi. Hindiston Ko'p qutbli dunyoda eng tez rivojlanayotgan iqtisodlardan biri bolib, IT, Tibbiyot, farmatsevtika, kosmik texnologiyalar va xizmat ko'rsatish sohalarida jahon miqyosida muhim o'ringa ega. Hindiston o'zining "Make in India" va "Digital India" kabi tashabbuslari bilan ichki ishlab chiqarish va texnologik rivojlanishga katta e'tibor qaratmoqda.<sup>3</sup>

Ko'p qutbli dunyo shakillanmasdan oldin, dunyo bir qutbli va ikki qutbli dunyoga ham bo'lingan edi. Bir qutbli dunyo - bu dunyo tizimida yagona global lider yoki qudratli davlat hukmronlik qilishi. Bunday tizimda, bu davlatning siyosiy, iqtisodiy va harbiy qudrati boshqa davlatlarga nisbatan ustun bo'ladi. 1991-yilda Sovet Ittifoqining qulashi bilan, dunyo 1 qutbli holatga o'tdi. Ushbu holatning eng mashhur namunasi — Amerika Qo'shma Shtatlarining dunyoda superkuch bo'lishidir. Ikki qutbli dunyo – bu dunyo tizimida ikki asosiy kuch davlatlarning hukmron bo'lishi. Boshqacha qilib aytganda, dunyo ikki yirik qudrat markazi masalan, AQSh va Sovet Ittifoqi o'rtasida taqsimlanishi bilan tartibga solinadi. Sharqda Sovet Ittifoqi va G'arbda AQShning ikki qutbli tizimi, 1945-yil 2-jaxon urushi tugaganidan so'ng 1991-yil Sovet ittifoqi parchalanguncha bo'lgan davrni o'z ichiga qamrab oladi. O'tgan XX asrning ikkinchi yarmi biployar dunyo tartibotida liberalizm va uning asosiy tamoyillari -

<sup>2</sup> A Goldstein, 'An emerging China's emerging grand strategy', in GJ Ikenberry & M Mastanduno (eds), *International Relations Theory and the Asia-Pacific*, New York: Columbia University Press, 2003.

D Flesmes & AC Vaz, *Security Policies of India, Brazil and South Africa: Regional Security Contexts as Constraints for a Common Agenda*, giga Working Paper 160, Hamburg: giga, February 2011.

<sup>3</sup> D Flesmes & AC Vaz, *Security Policies of India, Brazil and South Africa: Regional Security Contexts as Constraints for a Common Agenda*, giga Working Paper 160, Hamburg: giga, February 2011.

erkinlik, demokratiya, bozor iqtisodiyoti, va inson huquqlari — AQSh va G'arb davlatlarining tashqi siyosatida asosiy o'rin tutgan. Liberalizm nafaqat iqtisodiy va siyosiy tizim sifatida, balki global siyosatda mustahkamraq o'rin tutgan ideologiya sifatida paydo bo'ldi. Sovet Ittifoqi esa o'zining kommunistik ideologiyasini himoya qilgan va bu ikki ideologiya o'rtasida raqobat bor edi. Liberalizmning bipolyar dunyodagi roli ayniqsa Sovuq urushining oxirgi yaqin davrlari, Sovet Ittifoqining qulashiga va G'arb blokining g'alabasiga olib kelgan. Biroq, bu davrda liberalizmning o'zi ham vaqt o'tishi bilan ba'zi o'zgarishlarga duch keldi, chunki G'arbning ba'zi davlatlari ichki muammolar va iqtisodiy krizislar bilan ham yuzlashgan. Shunga qaramay, liberalizmning asosiy g'oyalari, ayniqsa erkin bozor va demokratiya, global siyosatda davom etib kelmoqda. Bugungi xalqaro tizimda unipolyarlik, bipolyarlik, va ko'p qutblilik kabi elementlar mavjud. Ammo, bugungi global hukmronlik va siyosatdagi holat na bir qutblilikga, na ko'p qutblilikga o'hshaydi. Kuch bir necha global aktorlar o'rtasida taqsimlanib, muhim global masalalarga ta'sir ko'rsatish imkoniyatlarini kengaytirmoqda, lekin dunyo davlatlar o'rtasidagi va ichki bo'linishlar ortib bormoqda, bu esa global muammolarga birgalikda yondashishni qiyinlashtirishi mumkin.<sup>4</sup>

Ko'p qutbli dunyoga o'tish haqidagi fikrlar aralash. Optimistlar - global boshqaruvni ko'proq inklyuziv qilish va AQShning hokimiyatini va dunyoda ta'sirini kamaytirish yo'lida ish olib boradigan deb o'ylashsa, Pessimistlar - esa ko'p qutblik dunyoning tartibsizlik va nizolarni keltirib chiqarishi, shuningdek samarali hamkorlikni qiyinlashtirishi mumkinligidan xavotirda. Jamoatchilik fikri keskin farq qilmoqda, G7 mamlakatlarida ko'p qutbli dunyoga nisbatan ehtiyotkorlik sezilarli, G7 davlatlari (AQSH, Kanada, Yaponiya, Germaniya, Frantsiya, Italiya va Buyuk Britaniya) tarixan global siyosatda yetakchi rol o'ynagan mamlakatlardir. Ular ko'p qutbli dunyoga qarshi ehtiyotkorlik bildiradi, chunki bu yangi tartibda ularning global ta'siri pasayishi

<sup>4</sup> Hurrell, 'Hegemony, liberalism and global order'.

mumkin. G7 mamlakatlari uchun global liderlikni saqlash muhim, va ular dominatsiya qilayotgan bir qutbli tizimga ko'proq moyil.<sup>5</sup>

Ko'p qutblilik tushunchasi, yangi bo'lmasa ham, bugungi kunda eng mashhur so'zga aylangan. Siyosiy nutqlar va strategiya hujjatlaridan ko'rib turganimizdek, biz yangi multipolyar tartibning paydo bo'lishiga guvoh bo'lmoqdamiz – yoki allaqachon unda yashamoqdamiz. Bu g'oyalarning tushunarli tarzda ifodalangan versiyasiga ko'ra, Sovuq urushning bipolyar davri, AQShning global g'alabasi bilan belgilanadigan Sovuq urushdan keyingi yagona qutbli davrga yo'l ochgan. Endi biz tobora ko'p qutbli davrning boshlanishiga guvoh bo'lamiz. Biroq, "ko'p qutblilik" nima ekanligi haqidagi talqinlar juda farq qiladi. Ko'p qutblilikning dunyoda rivojlanishi, olimlar tomonidan turlicha ijobiy va salbiy tomonlarga ko'ra o'rganishgan. Har ikki tomonni tahlil qilish va o'rganish, dunyo siyosati va iqtisodiyoti uchun qanday ta'sirlar keltirib chiqarishi mumkinligini yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Pozitiv fikrlarga ko'ra ko'p qutblilik bu - yangi imkoniyatlar va hamkorliklarni yaratib, davlatlar o'rtasida iqtisodiy va diplomatik aloqalarni rivojlantirishda muhim ro'l o'ynaydi. Dunyoda dominant davlat bo'lmasligini oldini oladi va Davlatlar turli kuchlar bilan o'zaro hamkorlikni kengaytirish, yangi bozorlar va investorlarni jalb qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shuningdek, Ko'p qutblilik o'zaro raqobatni kuchaytirishi, yoki aksincha davlatlar o'zaro xavfsizlikni ta'minlash uchun yangi ittifoqlar tuzishi mumkin.. Masalan, Yevropa Ittifoqi yoki NATO kabi tashkilotlar bunga yaqqol misol bo'la oladi. Negativ Tomonlariga ko'ra esa Ko'p qutblilik dunyosida turli davlatlar o'rtasida geosiyosiy raqobat kuchayishi mumkin. Bu, o'z navbatida, noaniqlikni keltirib chiqarishi, ba'zi davlatlarning o'z manfaati uchun boshqa davlatlarga qarshi tajovuzkor siyosat

---

<sup>5</sup> Multipolarization, Munich Security Report 2025. P-9,10

yuritishiga olib kelishi mumkin. Bu Geosiyosiy raqobatning kuchayishi esa kuchlar raqobatining ortishi bilan global inqirozlarning ehtimolini oshiradi. Ayniqsa, harbiy kuchlar o'rtasidagi raqobat global urush yoki boshqa xavf-xatarlarni keltirib chiqarishi mumkin. Ammo, Ko'p qutblilik iqtisodiy tizimlarda notenglikni kuchaytirishi mumkin. Ba'zi davlatlar o'z manfaatlarini uchun yangi iqtisodiy tizimlar va savdo ittifoqlarini shakllantirishi, bu esa ba'zi mamlakatlar uchun iqtisodiy izolyatsiyani keltirib chiqarishi mumkin.

Ko'p qutblilikning O'zbekiston siyosatiga ta'siri turlicha bo'lishi mumkin. Ijobiy tomondan - yangi imkoniyatlar va ko'p tomonlama diplomatiya orqali hamkorliklarni yaratish va barqarorlikni ta'minlashi mumkin bo'lsa-da, salbiy tomonlar esa davlatlar bilan raqobat, xavf-xatarlar va iqtisodiy notenglikni keltirib chiqarishi mumkin. O'zbekiston bu holatning muvaffaqiyatli boshqarilishi, diplomatiya va iqtisodiy aloqalar orqali o'z manfaatlarini himoya qilishni bu globallashtirish davrida juda dolzarb masalalardan biri bo'lishi mumkin. Ko'p qutblilik, diplomatik ko'nikmalarni va ko'p tomonlama diplomatiyaning ahamiyatini oshiradi. O'zbekiston uchun bu davrda, davlatning o'z tashqi siyosatini mustahkamlash, mintaqaviy va global darajadagi muhim o'yinchilarga nisbatan siyosiy va iqtisodiy diplomatiya yuritish, muhim rol o'ynaydi. O'zbekistonning mustaqil va neytral tashqi siyosatiga asoslanib, davlat o'zining manfaatlarini himoya qilishda, ko'p tomonlama aloqalarga tayyor turishi zarur. Xulosa qilib Ko'p qutblilikning O'zbekiston siyosati va diplomatiyasi uchun ta'siri, shubhasiz, ikki tomonlama - ijobiy va salbiy - bo'ladi. O'zbekiston uchun asosiy chaqiriq, ko'p tomonlama diplomatiya va xalqaro hamkorlikni samarali boshqarishda yotadi. Mamlakat o'zining geopolitik manfaati va iqtisodiy o'sishiga ta'sir qiladigan global jarayonlarni kuzatib borish, xavfsizlikni ta'minlash va iqtisodiy imkoniyatlarni oshirish uchun o'z tashqi siyosatini doimiy ravishda moslashtirishi kerak. Shuningdek, bu jarayonlarda global iqtisodiy tizimdagi tengsizliklar, xavfsizlik tahdidlari va diplomatik

murakkabliklar O‘zbekiston siyosatining asosiy yo‘nalishlariga ta’sir o‘tkazadi. Ko‘p qutbli dunyo faqat harbiy va siyosiy kuchlar o‘rtasidagi muvozanat emas, balki kiberxavfsizlik, ekologik tahdidlar va pandemiyalarga qarshi global birdamlikni ham taqozo etadi. Bu esa yangi xavfsizlik paradigmasini shakllantirmoqda. O‘zbekiston so‘nggi yillarda o‘zining tashqi siyosatini mintaqaviy integratsiya va xalqaro ochiqlikka yo‘naltirib, Afg‘oniston orqali Hind okeaniga chiqish loyihalarini ilgari surmoqda. Bu tashabbuslar ko‘p qutbli dunyoda iqtisodiy hamkorlik imkoniyatlarini kengaytiradi.

## **XULOSA**

Ko‘p qutbli dunyo bugungi xalqaro siyosat va iqtisodiy munosabatlar tizimining eng muhim bosqichiga aylandi. Bu tizim bir tomonlama hukmronlikdan ko‘ra ko‘proq inklyuzivlik, muvozanat va hamkorlikka asoslangan. Global miqyosdagi ko‘plab kuch markazlarining mavjudligi, ularning o‘zaro raqobati va hamkorligi xalqaro siyosiy barqarorlik va iqtisodiy rivojlanish uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Biroq, bu tizimda xavf-xatarlar, notengliklar va geosiyosiy ziddiyatlar kuchayishi ehtimoli ham mavjud. Xususan, iqtisodiy manfaatlar, xavfsizlik tahdidlari, va siyosiy raqobat kuchlar o‘rtasida keskinlikni kuchaytirishi mumkin.

O‘zbekiston uchun ko‘p qutbli dunyo — bu strategik imkoniyatlar va ayni paytda diplomatik chaqiriqlar davridir. Mamlakat o‘zining geosiyosiy joylashuvi, resurs salohiyati va mintaqaviy yetakchilik ambitsiyasi asosida ko‘p tomonlama diplomatiya va xalqaro hamkorlikni yanada rivojlantirishi lozim. Shu bilan birga, O‘zbekiston xavfsizlik, iqtisodiy integratsiya, transport va ekologiya sohalarida global tashabbuslarda faol ishtirok etib, o‘z milliy manfaatlarini xalqaro sahnada muvaffaqiyatli ilgari surishi mumkin. Demak, ko‘p qutblilikni to‘g‘ri anglash va unga mos siyosiy strategiyani ishlab chiqish — O‘zbekistonning XXI asrdagi muvaffaqiyatli rivojlanishining muhim omilidir.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Buzan, B., & Lawson, G. (2015). *The Global Transformation: History, Modernity and the Making of International Relations*. Cambridge University Press.
2. E Vogel, *Japan as Number One: Lessons for America*, Cambridge, MA: Harvard University Press, 1986.
3. A Goldstein, 'An emerging China's emerging grand strategy', in GJ Ikenberry & M Mastanduno (eds), *International Relations Theory and the Asia-Pacific*, New York: Columbia University Press, 2003.
4. D Flesmes & AC Vaz, *Security Policies of India, Brazil and South Africa: Regional Security Contexts as Constraints for a Common Agenda*, giga Working Paper 160, Hamburg: giga, February 2011.
5. Hurrell, 'Hegemony, liberalism and global order'.
6. Multipolarization, Munich Security Report 2025. P-9,10
7. Ministry of External Affairs, Government of India. (2023). *India's Foreign Policy Overview*. Retrieved from <https://www.mea.gov.in>
8. Ministry of Foreign Affairs, Republic of Uzbekistan. (2024). *Uzbekistan's Foreign Policy and Regional Diplomacy*. Retrieved from <https://mfa.uz>
9. Tolipov, F. (2020). *Uzbekistan's New Foreign Policy Concept: Regionalism, Neutrality and Pragmatism*. Central Asia-Caucasus Institute Analyst. Retrieved from <https://cacianalyst.org>
10. <https://uza.uz/posts/514314>